


TASHQI SAVDO AYLANMASI

2018 yil yanvar-dekabr

Toshkent shaharining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 9738,4 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 2870,3 mln. AQSh dollarini va import 6868,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini – 3997,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Toshkent shahar tashqi savdo tovar aylanmasi

(mln. AQSH dollar)




Toshkent shahrida so'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari davomida eksport hajmi o'tkan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi. Joriy yil mobaynida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

Tashqi savdo

MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog`iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 35,7 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Germaniya, Afg`oniston, Latviya, Litva, Xindiston, va AQSH davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 40,2 foizni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-dekabr oyida Toshket shahri tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	2017 yil	2018 yil	ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	2049,6	2272,3	23,3	110,9
Rossiya	1911,6	2248,6	23,1	117,6
Qozog'iston	619,8	827,2	8,5	133,5
Turkiya	423,0	472,8	4,9	111,8
Germaniya	297,7	377,1	3,9	126,6
Afg'oniston	305,5	366,3	3,8	119,9
AQSh	140,1	273,0	2,8	194,9
Koreya Respublikasi	231,8	269,4	2,8	116,3
Ukraina	107,5	220,3	2,3	204,9
Latviya	96,3	184,9	1,9	192,0
Tojikiston	138,1	181,4	1,9	131,4
Litva	119,3	172,8	1,8	144,8
Hindiston	215,8	163,2	1,7	75,6
Italiya	98,6	162,1	1,7	164,3
Qirg'iziston	75,4	109,9	1,1	145,6
Fransiya	87,8	109,0	1,1	110,9

Toshkent shahrida so'nggi yillarda tashqi savdo jadal rivojlanmoqda hukumatimiz tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari davomida tashqi savdoda asosiy hamkor davlatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sishga erishgan. Xitoy 10,9 %, Rossiya 17,6 %, Qozog'iston 33,5%, Turkiya 11,8 %, Germaniya 26,6 %. O'tgan yilga nisbatan tashqi savdosi kam bo'lgan Hindiston (75,6 foiz) bunda importda 2017 yilga nisbatan kamayish kuzatilgan. 2018 yil yanvar-dekabr 146,2 mln dollar bo'lsa 2017 yilning mos davriga 196,7 mln dollar bo'lgan.


2018 yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasi saldosini – 3997,8 mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –1569,9 mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan –2427,9 mln.AQSh dollari tashkil etdi.

2018 yilning yanvar – dekabr oyida shaharning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
Eksport	2870,3	105,8	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari	121,2	146,9	4,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	162,5	193,8	5,7
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	166,7	113,7	5,8
qora va rangli metallar	74,1	72,4	2,6
mashina va asbob-uskunalar	98,1	71,4	3,4
xizmatlar	1927,4	103,6	67,1
boshqalar	320,3	106,9	11,2
Import	6868,1	119,9	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari	839,4	118,9	12,2
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1412,5	108,4	20,6
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	111,8	146,6	1,6
qora va rangli metallar	774,2	87,3	11,3
mashina va asbob-uskunalar	2413,0	143,0	35,1
xizmatlar	464,0	106,8	6,8
boshqalar	853,2	134,3	12,4

Tashqi savdo — bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import) dan tashkil topadi. Eksport va import yig'indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi.


Tashqi savdo aylanmasi hajmi (o'tgan yilga nisbatan,%)



Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati eng yuqori tumanlar Shayxontoxur 139,6 %, Uchtepa 161,1 %, Mirzo-Ulug'bek 138,7 % tashkil etkan. Toshkent shaharida tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,8 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,2 % ga oshdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida Boshqa xorijiy davlatlarning ulushi 61,2 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ga oshdi.

Tashqi savdo aylanmasining choraklik dinamikasi


(mln.AQSH dollari)



Yuqorida keltirilgan tashqi savdo aylanmasining choraklik dinamikasidan shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2018 yilning yanvar-dekabrda tashqi savdo aylanmasi hajmi 9738,4 mln.AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1297,9 mln.AQSH dollariga ko‘p demakdir.

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning choraklik dinamikasi

(mln.AQSH dollari)



(.)

			%
	797,4	1474,8	23,3
	594,7	1653,9	23,1
	365,0	1,4	3,8
	189,6	637,5	8,5
	133,5	47,9	1,9
	133,0	339,8	4,9
	66,6	43,3	1,1
	59,4	210,0	2,8
	43,0	52,3	1,0
	38,8	181,6	2,3
	35,3	341,8	3,9
	33,1	16,0	0,5
	26,3	82,6	1,1
	25,3	247,7	2,8

2018 -

(23,3 %),

(23,1 %),

(8,5 %),


(4,9 %)

59,8%

EKSPORT


o'shkent sh hrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda. Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 193,8 foizga, oziq-ovqat mahsulotlari 146,9foizga, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 113,7 foizga o'sgan.

Eksport tarkibi jamiga nisbatan foizda



2018 yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 2870,3 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 % oshdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami eksportda MDH davlatlarining ulushi 38,5 %ni tashkil etdi hamda eksportda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 % ga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning eksportda ulushi 61,5 % ni tashkil etdi hamda eksportda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,0 % ga oshdi.


Eksport hajmidagi katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi Rossiya Federatsiyasi va Afg'oniston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,2 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.


Eksport (lot. — olib chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib o tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarini boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham eksportga kiradi.

Tovarlar va xizmatlar eksporti (o'sish su'radi o'tgan yilga nisbatan foizda)




Eksport o'sish sur'ati eng yuqori tumanlar Uchtepa 275,7 %, Shayxontoxur 151,5%, Olmozor 115,4 %, tashkil etkan. Tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2018 yilning yanvar-dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 %ga oshgan.

Import tarkibi jamiga nisbatan foizda



Import tarkibining umumiy hajmidan 35,1 % foizni mashina va asbob-uskunalar va 20,6 % foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 6868,1 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % oshdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami importda MDH davlatlarining ulushi 39,0 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning importda ulushi 61,0 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga oshdi.


Import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda



Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, importda asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami importdagi ulushi 54,9 foizni tashkil qildi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar asosan manashu davlatlarga tugri keladi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahriga 100 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog'iston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 4447,9 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 64,8 % ini tashkil qiladi

Import (ing . import — keltirish, olib kelish) — mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o‘tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qogozlar va boshqalar keltirish. Yuklar, passajirlarni chet eldan tashib keltirish, sayyohlik, sug‘urta, ilmiy-texnika bilimlari va boshqa xizmatlar harajatlari ham import tarkibiga kiradi.

Tovarlar va xizmatlar importi (o'sish su'rati o'tgan yilga nisbatan foizda)



Import o‘shish sur‘ati eng yuqori tumanlar Bektemir 172,8 % Mirzo-Ulug‘bek 160,5 %, Uchtepa 143,1 %, ni tashkil etkan.

